

Yangi statsionar laboratoriya tashkil etiladi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida "O'zbekneftegaz" AJ rahbar xodimlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlik masalalari muhokama qilindi. O'zR FA Mikrobiologiya institutining Eksperimental binosini ta'mirlash hamda O'zbekistonning turli ekstremal hududlarida neft chiqindilari bilan ifloslangan suv va tuproq bioremediatsiyasi sohasida qo'shma tadqiqotlar olib borish bo'yicha yangi statsionar laboratoriyani tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.